

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

**SHARQ FALSAFASI VA GERMENEVTIKA
KAFEDRASI**



**"SHARQ ALLOMALARI YOZMA
MEROSINING ILMIY, FALSAFIY,
MA'NAVIY TAFAKKURDAGI O'RNI"**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

**SHARQ ALLOMALARI YOZMA MEROSINING
ILMIY, FALSAFIY, MA’NAVIY
TAFAKKURDAGI O‘RNI**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari**

Toshkent – 2025

ЛИТЕРАТУРА:

1. Бердяев Н.А. Судьба России. Опыты по психологии войны и национальности. – М.: Философское общество СССР, 1990. – С. 115.
2. Серебренникова А.В. Восток — Запад: гармония и дихотомия //Вестник Университета имени О.Е. Кутафина (МГЮА). 2021;(5):162-168. <https://doi.org/10.17803/2311-5998.2021.81.5>. –С.162. -162-168с.
3. Фукуяма Ф. Конец истории и последний человек; пер. с англ. М.Б. Левина. – М.: АСТ, 2007. – 588 с.
4. Said E. Orientalism. –N.Y.: Pantheon Books, 1977.
5. Электронный ресурс: Clash of Civilizations or Nuisance? Medieval Crusading and the War on Terror | HuffPost Religion. -Дата обращения: 12.07.2023.
6. Zedong, Mao. The Writings of Mao Zedong, 1949-1976: January 1956-December 1957 (англ.) / Кау, Michael Y. M.; Leung, John K.. — М.Е. Sharpe[англ.], 1992. — Vol. 2. — P. 775. — (Writings of Mao Zedong). — ISBN 0873323920.
7. Архивное интервью с историком Омеляном Прицаком. Дата обращения: 11 сентября 2023. Архивировано 16 мая 2022 года. (электронный ресурс: <https://amnesia.in.ua/omeljan-pritsak>)
8. Степь между Востоком и Западом. Архивное интервью с историком Омеляном Прицаком. Электронный ресурс: <https://amnesia.in.ua/omeljan-pritsak>. – Дата обращения: 18.12.2024.

MAFKURAVIY KUCH TRANSFORMATSIYASI (XXR MISOLIDA)

Abdazimov Javlon Murod o'g'li

stajyor-o'qituvchi, PhD

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

Tarixdan ma'lumki, inson paydo bo'lib, urug', qabila, jamoa yoki xalq sifatida shakllanishi ro'y bergan dastlabki davrlardayoq ularni birlashtirib turadigan umumiy g'oyaga ehtiyoj tug'ilgan.

Inson tafakkurga ega, voqea-hodisalar asosida tugal xulosalar chiqaradigan eng mukammal mavjudotdir. U aqli orqali olam sirlarini tadqiq qila oladi, qalbi vositasida uning go'zalligini his etadi, voqelikdan xulosa yasay oladi, hayot qonunlariga moslashib yashashga intiladi. Mavjud sezgilar orqali inson qalbi va ongida o'ziga xos timsol va tasavvurlar uyg'onadi, unda orzu-intilish, maqsad-muddaolarni vujudga keladi. Ana shu intilish va maqsadlar insonning faoliyati orqali amalga oshadi, ya'ni, hayotga, voqelikka qaytadi, unga ta'sir qiladi va uni o'zgartiradi. Inson hayotni, o'zini o'rab turgan tashqi muhitni o'zgartirishga majbur qiladigan moddiy va ma'naviy omillar orasida fikr, g'oya, maqsad nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. G'oya insonning borliqqa, o'z hayotiga bo'lgan munosabati, oldindagi maqsadlari asosida shakllanadi va o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Tafakkur bilan inson voqelikni idrok etadi, turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlarni kashf etadi. Ko'rinadiki, g'oyalar ham inson tafakkurining mahsulidir. Tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar ham g'oya bo'la olmaydi, faqat eng kuchli, ta'sirchan fikrlargina g'oya bo'la olishi mumkin.

Jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrlarda tezlashishi yoki sekinlashishi, jamiyat hayotida ijobiy yoki salbiy holatlarning ro'y berishi jamiyatda qanday g'oyalar hukmronlik qilishi, ular qanday kuchlarni harakatga keltirishi, qaysi bir ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ma'lumki, fikr asosida g'oya, g'oya asosida esa mafkura shakllanadi. Ya'ni, inson muayyan maqsadni mo'ljallab, uni amalga oshirishga qat'iy ahd qilsa, bu g'oya hisoblanadi. Boshqacha aytganda, inson yoki millatning asosiy maqsadlari g'oyalarda namoyon bo'lsa, uni ro'yobga chiqarishga qaratilgan shularning mazmun – mohiyati mafkurani tashkil qiladi.

Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa, odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ko'rinadi.

Xitoyda mafkura shakllanishi tarixiy tajribalaridan kelib chiqib "sotsialistik utopiyalarni tashviqot qiluvchi" harakatlarni ro'yobga chiqarishdagi bir nechta sabablarini aytib o'tish mumkin: "hokimiyat mulk" munosabati – inqilobiy ambitsiyani amalga oshirishni inkor etuvchi o'rta mulkchilik sinfning mavjud emasligi, ko'p asrlar davomida aholi tomonidan "kollektivizm" elementlarini "qabul" qilinishining yengil o'tishi, ming yillar davomida shakllanib kelgan xalq mentaliteti osonlikcha paydo bo'lishiga olib kelishi, murakkab iqtisodiy va siyosiy inqirozlar davrida hokimiyatning zaifligi va boshqaruvda xalq ishonchining yo'qolishiga olib kelgan.

Falsafiy fikrlar va uning mafkura bilan aloqadorligi munosabati masalasiga keladigan bo'linsa, unda Xitoy falsafasi shuningdek mafkurasining shakllanishida uchta eng muhim davrlarni aytib o'tish lozim:

1. Birinchi Xitoy Sin imperiyasi mafkurasini davri – legizm;
2. Xan imperiyasi mafkurasini – Konfutsiychilik va legizm doktrinalari uyg'unlashgan – ortodoks Konfutsiychilik;
3. Xitoy Xalq Respublikasi davri – Xitoy shart-sharoitlariga moslashtirilgan marksizm, "xitoylashtirilgan marksizm".

Davlatning hukmron mafkurasini sifatida bu uch mafkura butun jamiyat hayotiga aralashish va uning ustidan total nazorat o'rnatishni amalda oqlar edi. Jamiyat manfaatlariga davlat aralashuvining kuchayishi sari, fuqarolar orasida hamma narsa ular uchun qilinishi kerak va ulardan hech narsa talab qilinmaydi degan ishonch ham o'sadi. Ammo o'zi uchun sustlikning halokatli ekanligini anglagan Xitoy jamiyati, oldin bo'lib o'tganidek, mazkur muammoga o'z munosabatini o'zgartirishga qaror qiladi. Bu esa, Xitoy davlat tizimi hamda uning institutlari va vazifalarini o'zgartirish zaruriyat ekanligi haqidagi fikrga olib keladi.[1]

Mafkuraning jamiyatni harakatlantiruvchi kuchini bugun zamonaviy Xitoy Xalq Respublikasi xalqi erishayotgan yutuqlarida ko'rish mumkin. Xitoyliklar o'z muvaffaqiyatlarini Xitoy Xalq Respublikasining asoschilari Mao Szedun, yangi Xitoy me'mori, deb dunyoga tanilgan Den Syaopin kabi shaxslar bilan bog'laydi. Si Szinpinni esa bugun davlat rahbari va noyob qobiliyatga ega bo'lgan yetakchi deyishmoqda.

Xitoy yalpi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha hozir hatto AQShdan ham o'zib ketishga bel bog'lamoqda. Tarixan qisqa muddatda bunday muvaffaqiyatlar nimalar hisobiga qo'lga kiritilmoqda, degan haqli savol hammani qiziqtiradi. Shu o'rinda Xitoy

o'tgan asrning 30-40 yillarida aslida bitta g'oya, yagona mafkura asosida rivojlantira oldi.

Iqtisodiy mo'jizalari bilan jahonga mashhur bir qator boshqa mamlakatlar amaliyoti buni ko'rsatib turibdiki, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishini xalq bilan maslahat qilgan holda to'g'ri tanlash har bir davlatning muhim masalasidir. Bu jihatdan uning kelajagini ham belgilab beradi, buni Xitoy masalasida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Den Syaopin Xitoyga xos xususiyatlarga ega sotsializm g'oyalari asosida puxta o'ylanib boshlangan va samarasi ko'zga yaqqol tashlanib turgan yutuqlar nafaqat Xitoy xalqi tomonidan, jahonda ko'pchilik davlatlar tomonidan ham yakdillik bilan qo'llab quvvatlandi.

Den Syaopin boshlab bergan va jadal rivojlanayotgan Xitoy iqtisodiyoti kundankunga mustahkamlanib, ko'plab mamlakatlar oldida eng ishonchli hamkor mavqeyini egallamoqda, bugun Xitoyning o'zi xorijiy davlatlarga kattadan-katta investitsiyalar kiritmoqda. Xitoy aholisi hozirning o'zida mahsulot xarid qilish ko'rsatkichlari bo'yicha yer yuzidagi barcha mamlakatlardan o'zib ketdi desak adashmaymiz.

Xitoy xalqi o'z madaniyati, urf-odatlarini, milliy g'oyalari sodiq bo'lib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tuzumi, rahbarlari, davlat va jamoat arboblari faoliyatiga baho berishda adolat mezonlariga qat'iy tayangan holda yondashadi. 1970-yillar va 1980-yillarning boshlarida Den Syaopin Xitoyning modernizatsiyasini rivojlantirish loyihasini amalga oshirishda "o'rtacha farovon jamiyat"ga erishish konsepsiyasini ilgari surdi. Strategik va siyosiy maqsad "har tomonlama farovon jamiyat qurish" deb belgilanadi va uning tashkil etilishi xalqning siyosiy irodasini Xitoy xususiyatlariga ega sotsializmga sadoqat bilan mustahkamlashga qaratilgan edi. 1970-yillarning oxirida islohotlar va ochiqlik strategiyasi e'lon qilingandan so'ng, xitoylik olimlar Xitoyning modernizatsiya jarayonini asosan iqtisodiy o'zgarishlar bilan izohladilar. Biroq, mamlakat iqtisodiyotining jadal va yuqori rivojlanishi ijtimoiy adolatsizlik, atrof-muhitning buzilishi kabi jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, siyosiy jarayon doimiy ravishda nazariy muvofiqlikdagi kamchiliklarni ochib beradi, bu esa XKPning fikricha, mafkuraviy rejimning qonuniyligiga tahdid soladigan shaxsiy inqirozlarga olib keladi.[2]

Shu nuqtai nazardan Xitoy Xalq Respublikasi ko'p millatli davlatdir. XXRda 56 etnik guruh istiqomat qiladi. So'nggi vaqtlarda Xitoy akademik doiralari "Xitoy millati" atamasining mazmuniga nimalar kiradi, degan savol ko'p yangradi. Aksariyat olimlarning fikricha, Xitoy xalqi Osmon imperiyasi hududida yashovchi barcha etnik guruhlarining umumiy nomidir.[3]

Sotsializm g'oyalari XXR davlatchilik mafkurasida o'zining "Xitoy xususiyatlariga xos sotsializm", "Xitoy sotsializmi" talqinidagi xitoyga mos ijtimoiy-falsafiy dastur ekanini namoyon etadi. XXR qurayotgan bugungi jamiyat uch ustun-sotsialistik g'oya, kapitalistik ishlab chiqarish va an'anaviy milliy mafkura bilan sug'orilgan.

2012-yilning 17-noyabrida XKP markaziy Kengashi siyosiy byuro a'zolari oldida: XKPning XVIII syezdi ruhini o'rganish, targ'ib qilish va Xitoyning o'ziga xosligini saqlab qoladigan sotsializmni rivojlantirgan holda hayotga tatbiq etish"

ma'ruzasida Si Szinpin XXR yetakchilarining beshinchi avlodi kelishiga qadar mamlakat rahbariyati faoliyatiga kiritilgan nazariy innovatsiyalarni quyidagicha ta'rifladi.[4]

- Mao Szedun g'oyalari bilan marksizm-leninizmni xitoylashtirish;
- Xitoyda sotsializmni qanday qurish haqidagi savollarga tizimli tarzda javob bergan birinchi nazariya sifatida Den Syaopin nazariyasini targ'ib qilish;
- Szyan Szeminning (Sān gè dàibiǎo) 三个代表 (Uch vakillik) Xitoy keng xalq ommasining tub manfaatlarini qanday taqdim etishni tushuntirib berish;
- Xu Szintaoning (Yǐrénwéiběn) 以人为本 (Inson asos) konsepsiyasi yondashuvi bilan barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun har tomonlama muvofiqlashtirish zarurati haqidagi (Kēxué fāzhǎn) 科学发展 (Ilmiy rivojlanish) g'oyasi.[5]

Millatni fuqarolik, siyosiy jamoa sifatida tushunish bu atamaning etnik talqiniga zid emasligi ta'kidlanadi. Bunday yondashuv chet elda yashayotgan vatandoshlar bilan bog'liq barcha muammoli masalalarni olib tashlaydi. "Xitoy orzusi" 2022-yilda to'laqonli siyosiy shior va ijtimoiy-siyosiy yo'nalishga aylandi. Ushbu konsepsiya mazmunini batafsil o'rganish zarurdir, unda Xitoyning ma'naviy merosiga aniq mulohazalarni topishimiz mumkin.

Bir avlod umri davomida Xitoy siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy tanazzuldan chiqib mustahkam oyoqqa turdi, qudratli iqtisodiyotini shakllantirdi, katta sur'atlar bilan rivojlanib boryapti, "dunyo fabrikasi" degan nom oldi, bu muvaffaqiyatni bugun butun dunyo e'tirof etmoqda.

Xitoy bugungi kunda misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Xitoyning ulkan yutuqlarga erishishida ushbu mamlakatning "ochiq eshiklar" deb nom olgan tashqi siyosatga oid mafkurasi muhim omil bo'lmoqda.

Xitoy jamiyatida fikriy uyg'onish, intellektual yuksalishni kuzatish bugun juda yuksalgan. Masalan, ixtirolarga berilgan patentlar soni bo'yicha jahonda u birinchi o'ringa chiqdi. Ayni paytda, Amerika diyorida milliondan ziyod xitoylik talaba tahsil olmoqda. Ilmiy tahlillarga ko'ra, Xitoyda islohotlar samaradorligiga asosan modernizatsiyalash uchun barqaror shart-sharoit yaratildi, siyosiy islohotlarni o'tkazishda milliy qadriyat, urf-odat va xususiyat hisobga olindi, xalq fenomenal darajada mehnatkash va ishchi kuchi nihoyatda arzon, sotsializm yo'lidan og'ishmay o'z yo'lidan bormoqda, xorijdagi katta sondagi muhojir xitoyliklar ko'magida mamlakatga katta mablag'lar kelib tushmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Спенсер Г. Личность и государство. СПб. 1908. Стр.- 24
2. Ли Цюань. Идеологические истоки современного китайского дискурса официального управления. Культурный аспект [Электронный ресурс] // 21bcr.com.URL:<http://www.21bcr.com/dangdaizhongguoguanfangzhilihuayudeyishixi ngtaiqiuyan/> (дата обращения: 20.06.2018) (на кит. яз.).
3. Зорин В.Ю., Абрамов А.В. Государственная национальная политика, консолидация общества и политическая наука в современной России // Вестник Московского государственного областного университета. 2018. № 1. С. 1–6. <https://doi.org/10.18384/2224-0209-2018-1-861>